



KUZGI BUG'DOY NAVLARI O'RTASIDAGI KORELLYATIV BOG'LANISHLAR

Nasiba Abdunazarovna Yuldasheva

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Biologiya" kafedrasida o'qituvchisi
n.yuldasheva@cspi.uz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Respublikamizda don etishtirishni ko'paytirish uchun hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini izlab topib, kuzgi bug'doy navlarini yetishtirish orqali Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlari belgilarining o'zgaruvchanlik darajasiga ekish me'yorining ta'sirini o'rganildi. Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlari o'rtasidagi korrelyativ bog'lanishlar ahamiyati haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: G'allachilik, bug'doy, ekish me'yori, seleksiya, o'zgaruvchanlik darajasi, ertapishar, kechpishar navlar, korrelyatsiya.

Annatation: In this article, in order to increase grain production in our Republic, the impact of sowing rate on the variability of winter wheat varieties in the conditions of Syrdarya region by growing winter wheat varieties was studied. In the conditions of Syrdarya region, information is provided about the importance and advantages of sowing rates for winter wheat varieties in the conditions of Syrdarya region is given.

Key words: Cereal production, wheat, planting rate, selection, degree of variation, early, late ripening varieties, correlation.

KIRISH

Kuzgi bug'doy navlarining asosiy belgilari va ularning o'zgaruvchanligi va o'zaro bog'lanishlar darajasiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganishga oid o'tkazilgan tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldiki, ekish me'yori hosildorlikka bevosita ta'sir etuvchi belgilardan hisoblanadi. Ayniqsa sho'rlanishga moyil bo'lgan tuproq sharoitida kuzgi bug'doy navlarining optimal ekish me'yorini tanlash nafaqat hosildorlikni balki ikkilamchi sho'rlanishni oldini olish mumkin. Chunki tuproq yuzasini o'simliklar bilan to'liq qoplanishi ikkilamchi sho'rlanishning oldini olish bilan birga quyosh energiyasidan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa sho'rlanishga moyil bo'lgan tuproq sharoitida juda muhim hisoblanadi.[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlari belgilarining o'zgaruvchanlik darajasiga ekish me'yorining ta'sirini o'rganildi. Buning uchun miqdoriy genetikaning zamonaviy statistik usullaridan, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanildi. Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy optimal ekish me'yori gektariga 4-5 mln ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar Sirdaryo

viloyati shariotida kuzgi bug'doy navlari seleksiyasi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Olingan natijalarning muhimi shundaki, Sirdaryo viloyati sharoitida oktyabr oyining birinchi o'n kunligida ekilishi kerak bo'lgan bug'doy navlari uchun



ekish me'vori gektariga 4-5 mln ni tashkil etish kerak. Bunday holatda kuzgi bug'doy navaridan yuqori va sifatli hosil olish mumkin. O'rganilgan belgilardan boshqoq uzunligi nisbatan kam o'zgaruvchan va yuqori determinatsiyalangan belgilardan deb topildi. Bu esa o'z navbatida Sirdaryo viloyati sharoitida seleksiya ishlarini olib borishda ushbu ko'rsatkich asosiy kriteriyalardan deb hisoblash mumkin.[2].


Keyingi yillarda biologiya sohasida korrelyatsion tahlil natijalari keng qo'llanilmoqda. Chunki korrelyatsion usulning muhim tomonlaridan biri organizm belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasini aniqlashga yordam beradi. Ma'lumki, tirik organizm belgilari (ko'rsatkichlari) o'zaro birikib yagona sistemani tashkil etadi. Bu esa ma'lum bir jarayonda sodir bo'lgan o'zgarish boshqa organlarga ham ta'sir qilishi tabiiydir. [3].

Organizm belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasi nafaqat irsiy omillarga, balki tashqi omillarga ham bog'liq. Tashqi omillar (suv, ozuqa, tuproq, yorug'lik, havo) ta'sirida belgilar, ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlar darajasi keskin o'zgarishi mumkin. Shu sababdan bo'lsa kerak, ayrim tadqiqotchilar korrelyatsion tahlilning natijalarini har doim ham amalda qo'llab bo'lmaydi, degan fikrni ilgari surishmoqda.


Ma'lumki, g'allachilik qishloq xo'jaligining asosiy sohalaridan biri bo'lib, qolgan ushbu davrlarda, g'alladan yuqori va sifatli hosil olish imkoniyatlarini izlab topish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'z navbatida hosildorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri bu ekish me'voridir.[7].

Ekish me'vorining ortishi orgnizm belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasini ortishiga olib keladi. Ekish me'vorining ortishi o'simliklarga ma'lum qadar noqulay iqlim sharoitni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda o'simlik mazkur sharoitga moslanish uchun belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasini ortishiga olib keladi.


Endi GulDU navining o'rganilgan belgilari o'rtasidagi bo'g'lanishlar darajasini tahlil qilamiz. Ma'lumotlardan shuni aniq ko'rish mumkinki, nafaqat ekish me'vori, balki navlarning biologik xususiyatlari ham korrelyativ bog'lanishlar darajasiga ta'sir ko'rsatar ekan. Buni Chillaki va GulDU navlarining belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasidan ham ko'rish mumkin. Chillaki navi ekish me'vori 200 ta donni tashkil etgan variantda o'rganilganida 6 ta belgining 5 tasida teskari bog'lanish sodir bo'lgan bo'lsa, CulDU navining aynan shu variantida 3 ta belgilari o'rtasida teskari bog'lanish qayd etildi. CulDU navida ham boshqoq uzunligi (1), boshqoqdagi boshqoqchalar soni (2), hamda boshqoqdagi don og'irligi (4) kabi belgilar o'rtasida kuchsiz bog'lanish qayd etildi. Ekish me'vori 500 tani tashkil etganda esa, belgilar o'rtasidagi farq aniq ko'rindi. Bu variantda belgilar o'rtasidagi bog'lanishlar darajasini ortganligini ko'rish mumkin. Ekish me'vori 700 ta donni tashkil etganda, belgilar o'rtasidagi bog'lanishlar darajasi yanada ortganligini aniq ko'rish mumkin. Ayniqsa boshqoqdagi boshqoqchalar soni (2), boshqoqdagi don miqdori (3), boshqoqdagi don og'irligi (4) kabi belgilar o'rtasida kuchli bog'lanish sodir bo'lganligini alohida qayd etish mumkin.[8].



A.



B.



C.

GulDU navining o'rganilgan belgilari o'rtasidagi korrelyativ bog'lanishlar: A) Variant, B) 2-variant, C) 3-variant.

XULOSA



Olib borilgan statistik hisoblash ishlaridan xulosa chiqarish mumkinki, barcha navlarda ekish me'yorining ortib borishi organizm belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasini ortishiga olib keladi. Demak, noqulay sharoitda (ekish me'yorining ortishi o'simliklarda kuchli konkurensiya vujudga keltirishi mumkin) organizm belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar darajasini ortishiga olib kelar ekan. Bu esa o'simliklarni noqulay sharoitga moslashish uchun imkoniyat yaratadi, degan fikrni paydo bo'lishiga asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizov M. "Polojitel'naya korrelyatsiya mejdu urojayem i krupnostyu korobochki" Toshkent 1980 , 29-32, 44- betlar.
2. Bobomirzayev P.X. "Qattiq bug'doy navlarini ekish muddatlarini sifat ko'rsatkichlariga ta'siri// O'zbekiston bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya-Toshkent 2004 y 175-179 betlar.GIIRJ)
3. Maqsudov Z.Yu, Engalichev O.X. Analiz geneticheskix korrelyatsiy priznakov xlopchatnika pri skreshivanii sortiv raznix sortosmen// Uzbekskiy biologicheskij jurnal -1984, 42-45 betlar.
4. Maxammatova M.U. Bug'doy navlari fiziologik etilishi uchun va urug' sifatiga ekish me'yorini o'suv davri va hosildorligiga ta'siri// O'zbekiston bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya-Toshkent 2004y, 80-82 betlar.
5. Yuldasheva, N. A. (2022, November). SHIRINMIYA O'SIMLIGI POPULYATSIYASINING MORFO-EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 10, pp. 230-234).
6. Yuldasheva, N. A. (2022). VARIABLE INFLUENCE OF CULTIVATION RATE ON WINTER WHEAT VARIETIES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 881-884.
7. Юлдашева, Н. А. (2022). БОТАНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИЙ СОЛОДКИ ГОЛОЙ СОБРАННЫХ С РАЗЛИЧНЫХ МЕСТООБИТАНИЯ. Academic research in educational sciences, 3(11), 223-230.
8. Юлдашева, Н. А. (2022). ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЕ СОЛОДКИ ГОЛОЙ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ. Журнал Биологии и Экологии, 4(3).
9. Юлдошова, Н. А., Нурбоева, Ш. О., Рахматуллаева, А. К., & Сафаров, И. В. (2022). КАЧЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ ЛИПИДОВ МИКРОВОДОРОСЛЕЙ РОДОВ CHLOROCOCCUM И SCENEDESMUS, РАСПРОСТРАНЕННЫХ В ВОДОЕМАХ УЗБЕКИСТАНА. Современная биология и генетика, 1(1), 21-29.